

**DAKTIL VA IMO-ISHORA NUTQI VOSITASIDA BO‘LAJAK
SURDOTARJIMONLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISHNING INNOVISION DIDAKTIK TIZIMI**

Yembergenov Dauran Tileubergenovich

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning
klinik asoslari” kafedrası o‘qituvchi*

Annotatsiya Ushbu maqolada daktil va imo-ishora nutqi vositasida bo‘lajak surdotarjimolarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion didaktik tizimi yoritilgan. Tadqiqotda L.S. Vygotskiy, U. Stouki, G.L. Zaytseva va I.F. Geylman kabi yetakchi olimlarning nazariy-metodologik yondashuvlariga tayangan holda, surdotarjimolarni tayyorlashning 6 ta asosiy didaktik texnologiyasi (konfiguratsion guruhlash, sinxron-orfoepik simulyatsiya, sensomotor-harakat, uch parametrli xirologik tahlil, vaqt o‘qi, mimik va kinesik transformatsiya) hamda ularning amaliy mexanizmlari va qiyosiy-funksional tavsifi ochib berilgan.

Kalit s o‘zlar Surdotarjima, kasbiy kompetensiya, daktil nutqi, imo-ishora nutqi, daktilema, xirema, xirologik uya, konfiguratsion guruhlash, sinxron-orfoepik simulyatsiya, sensomotor-harakat texnologiyasi, uch parametrli tahlil, vaqt o‘qi.

Abstract This article highlights an innovative didactic system for developing the professional competence of future sign language interpreters through dactyl and sign speech. Drawing upon the theoretical and methodological approaches of leading scholars such as L.S. Vygotsky, W. Stokoe, G.L. Zaytseva, and I.F. Geylman, the study reveals six core didactic technologies for training sign language interpreters (configuration grouping, synchronous-orthoepic simulation, sensomotor-movement technology, three-parameter cheremic analysis, time-axis technology, and mimetic-kinesic transformation), along with their practical mechanisms and comparative-



functional characteristics. Furthermore, it analyzes issues regarding the step-by-step implementation of this system into the educational process and the automatization of translation skills through video-auto-reflection.

Keywords Sign language interpreting, professional competence, dactyl speech, sign speech, dactyleme, chereme, cheremic nest, configuration grouping, synchronous-orthoepic simulation, sensomotor-movement technology, three-parameter analysis, time axis.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiylashuv va axborot almashinuvi jarayonida daktil va imo-ishora nutqi birlamchi va almashtirib bo'lmaydigan kommunikativ vosita hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbek imo-ishora tiliga huquqiy maqom berilishi munosabati bilan oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak surdotarjimolarni tayyorlash sifatini oshirish, ularning kasbiy va lingvistik kompetensiyalarini xalqaro standartlar hamda ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirish alohida pedagogik dolzarblik kasb etadi. Zamonaviy surdopedagogika va surdolingvistika sohasida bo'lajak muloqot vositachilarini tayyorlashda maxsus didaktik texnologiyalardan foydalanish metodikasi sohasida bir qator ilmiy maktablar va fundamental nazariyalar mavjud: L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi (birlamchi eshitish nuqsonini ikkilamchi nutqiy va kognitiv og'ishlardan differensiyalash, maxsus imo-ishora signallari va daktillemalarni semiotik vosita sifatida kognitiv rivojlanish maydoniga kiritish), W. Stokoe va G.L. Zaytsevaning surdolingvistik tadqiqotlari (imo-ishora nutqining milliy va tabiiy strukturasini akademik o'rganish, uning vizual-fazoviy tabiatini tahlil qilish hamda kalkalashgan imo-ishora nutqi va tabiiy imo-ishora tilining amaliy-funksional farqlarini ko'rsatib berish) hamda I.F. Geylman yondashuvi (daktillash va daktilografik birliklarni barmoqlar harakati hamda kinestetik o'xshashligiga ko'ra tasniflashning empirik asoslari).

Surdotarjimonning kasbiy kompetensiyasi deyilganda mutaxassisning daktil va imo-ishora nutqi birliklarini to'liq egallaganligi, ularni og'zaki va yozma nutqqa sinxron hamda izchil ravishda benuqson, semantik va stilistik yo'qotishlarsiz o'girish, shuningdek, eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning psixofizik xususiyatlarini inobatga olgan holda muloqotni tashkil etish qobiliyati tushuniladi. Bunda Daktilema – daktil alifbosidagi harfning barmoqlar harakati orqali ifodalangan eng kichik vizual-taktil birligi bo'lsa, Xirema (U. Stouki bo'yicha) – imo-ishoraning ma'no ajratuvchi eng kichik strukturaviy komponentidir. Xirologik uya (konfiguratsiyalar guruhi) esa bir xil yoki o'xshash panja va barmoq shakllaridan foydalaniladigan daktilema va ishoralar majmuidan iborat.

Bo'lajak surdotarjimolarda sensor, motor va kognitiv ko'nikmalarni bir vaqtda shakllantirish uchun 6 ta asosiy didaktik texnologiya kompleks ravishda qo'llaniladi: Konfiguratsion guruhlash (I.F. Geylman yondashuvi) an'anaviy alifbo tartibidagi o'qitish usuli keltirib chiqaradigan mushak va vizual xotiradagi tartibsizlikning oldini oladi. Geylman yondashuvida daktillemalar hamda ishoralar panja va barmoqlarning fazoviy joylashuvi hamda kinestetik o'xshashligiga ko'ra 7 ta bazis guruhga ajratiladi: (1) Ochiluvchi/yopiluvchi harakatlar, (2) Ochiq-ko'tarilgan harakatlar, (3) Juftlashuvchi va tutashuvchi harakatlar, (4) Pastga va oldinga yo'nalgan harakatlar, (5) Ikki barmoqli modifikatsiyalar, (6) Aylanma va tebranma harakatlar, (7) Statik-kompakt shakllar. Bu yondashuv vositachi kinestetik zo'riqishni kamaytiradi, daktillash va ishora ijro etish tezligi hamda aniqligini 40-50% ga oshiradi.

Sinxron-orfoepik simulyatsiya daktillash jarayonini daktil orfografiyasi (harflarning to'liq va aniq tasviri) hamda lab artikulyatsiyasining orfoepiyasi (tovushlarning jonli nutqdagi fonetik talaffuzi) bilan bir vaqtda uzluksiz moslashtirish texnologiyasidir. Yozma nutqda harflar to'liq yozilgani bilan (KITOB), orfoepik talaffuzda oxirgi tovush jarangsizlashadi ([kitop]).



Simulyatsiya jarayonida vositachi qo‘li bilan K-I-T-O-B daktilemalarini aniq va ravon ketma-ketlikda ko‘rsatgani holda, lab artikulyatsiyasi orqali og‘zaki nutq orfoepiyasini [kitop] tarzida sinxron va artikulyatsion noaniqliklarsiz namoyish etadi. Sensomotor-harakat texnologiyasi daktil va ishora ko‘nikmalarini avtomatizm darajasiga yetkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, 4 bosqichni o‘z ichiga oladi: Neyromotor faollashtirish (mayda motorikani oshirish), Statik/dinamik kinestetik baza (mushakdagi xotira izini mustahkamlash), Daktilemalarni so‘z va birikmalarga biriktirish (uzluksiz so‘z birliklariga o‘tish) hamda Avtomatlashtirilgan motor xotira (kinetik harakatlarni ongli nazoratsiz, tezkor ijro etish). Imo-ishora nutqining uch parametrli (xirologik) tahlili (U. Stouki modeli) bo‘yicha har bir imo-ishora unitar belgi emas, balki uchta asosiy parametrning sinxron birikmasidan iborat: Konfiguratsiya (qo‘l va barmoqlar shakli), Lokalizatsiya (ishora ijro etilayotgan fazoviy hudud) hamda Kinematika (harakat vektori, tezligi va trayektoriyasi). Masalan, *OTA* va *ONA* ishoralarida Konfiguratsiya va Kinematika bir xil bo‘lishi mumkin, ammo Lokalizatsiya (iyak va pesxona) farqlanadi. Uch parametrli tahlil bo‘lajak surdotarjimonga semantik xatoliklarning oldini olish imkonini beradi.

Vaqt o‘qi texnologiyasi abstrakt vaqt va grammatik zamon tushunchalarini fazoviy-motor koordinatsiya orqali ko‘rgazmali ifodalaydi. Yelka va tana vertikal chizig‘i hozirgi zamonni (HOZIR, BUGUN), yelkadan orqaga yo‘nalgan fazo o‘tgan zamonni (KECHA, ILGARI), oldinga uzaytirilgan fazo esa kelasi zamonni (ERTAGA, KELAJAKDA) aks ettiradi. Mimik va kinesik transformatsiya orqali imo-ishora tilida grammatik va sintaksik ma’nolarning aksariyati (so‘roq, inkor, bo‘yoqdorlik, mantiqiy urg‘u) nonverbal kanallar — yuz mimikasi, qosh harakatlari, boshning tebranishi va tana plastikasi orqali beriladi. Surdotarjimon nafaqat qo‘llari bilan, balki butun kinesik imkoniyatlari bilan nutqni transformatsiya qilishi shart. Bo‘lajak surdotarjimolarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda qo‘llaniladigan ushbu innovatsion

texnologiyalarning qiyosiy xarakteristikasi va kutilayotgan pedagogik natijalari muayyan mantiqiy tizimga solinadi. Innovatsion didaktik tizim bo'lajak surdotarjimolarni tayyorlash ta'lim bosqichlariga ma'lum bir ketma-ketlikda integratsiya qilinadi:

Birinchi bosqichda — Nazariy-konseptual va propedevtik bosqichda daktil alifbosi va bazis konfiguratsiyalarning (18-20 ta variant) nazariy va vizual-sensor asoslari egallanadi. Tana markazi (ko'krak qafasi) nisbiy nuqta qilib olinib, propriotseptiv sezgilar va barmoqlar motorikasi faollashtiriladi.

Ikkinchi bosqichda — Segmentar-analitik va modellashtirish bosqichida imo-ishoralar xirologik uyalar bo'yicha guruhlanadi (masalan, "ochiq kaft" guruhida *MAKTAB*, *TIMSOH*, *SALOM* ishoralarini o'rganish). So'zlar bo'g'in va sintagmalarga ajratilib, slow-motion (sekinlashtirilgan) tempda daktil va artikulyatsiya sinxronlashtiriladi.

Uchinchi bosqichda — Differensial-simulyatsion bosqichda bir xil konfiguratsiyali paronimlar (masalan, *OMMA*, *SHU YERDA*, *SHOVQIN*) kinematika va lokalizatsiyasiga ko'ra aniq ajratiladi. Nutq tempi sekundiga 2-3 bo'g'in tezligiga chiqariladi va vaqt o'qi bo'ylab fe'l zamonlari integratsiya qilinadi.

To'rtinchi bosqichda — Refleksiv-korreksion va avtomatlashtirilgan integratsiya bosqichida real vaqt rejimida tarjimadagi optik, kinetik yoki topografik og'ishlarni avtomatik aniqlash va o'z-o'zini korreksiya qilish mexanizmi ishga tushadi. Mimik va kinesik transformatsiya orqali nutq so'roq, inkor hamda emotsional-bo'yoqdor shakllarga o'tkaziladi.

Bo'lajak surdotarjimolarda o'z-o'zini nazorat qilish va baholash kompetensiyasini shakllantirish uchun video-auto-refleksiya va debriefing texnologiyasi qo'llaniladi: talabaning amaliy tarjima jarayoni kameraga muhrlanadi, so'ng kadrma-kadr tahlil o'tkazilib, daktilografik aniqlik, xirologik uch parametr muvozanati va lab artikulyatsiyasining sinxronligi baholaydi va aniqlangan xatoliklar individual mashqlar orqali qayta ishlanadi.

Daktil va imo-ishora nutqi vositasida bo‘lajak surdotarjimolarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish – lingvistik, psixomotor va kognitiv jarayonlarning yaxlit sintezidir. Konfiguratsion guruhlash, sinxron-orfoepik simulyatsiya, uch parametrlı xirologik tahlil hamda sensomotor texnologiyalarning kompleks qo‘llanilishi bo‘lajak mutaxassislarğa daktil va imo-ishora nutqining yuqori sur‘atiga erishish, tarjimadagi semantik va topografik xatoliklarning oldini olish hamda eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslar bilan samarali va to‘laonli muloqotni ta‘minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M.M. Abdullaeva Bo‘lajak surdopedagoglarning imo-ishora nutqi vositasidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. – T., 2022. -130 b.
2. Z.N.Mamarajabova,M.M.Abdullayeva Daktil va imo-ishora nutyiga o‘rgatish metodikasi T.,2022.
3. Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika. – Toshkent, 2022.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая речь. – Москва: Владос, 2004.
5. Stokoe W. Sign Language Structure: An Outline of the Visual Communication Systems of the American Deaf. – Journal of Deaf Studies and Deaf Education, 2005.

